

BUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA ICHKI AUDIT TIZIMINING AHAMIYATI.

Xamidjonov Bobirjon Anvarjon o'g'li

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishda ichki audit tizimining zaruriyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat xaridlari tizimining samarali ishlashining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, bu tizimni boshqarishning samarali usullari va me'yoriy-huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Maqolada davlat xaridlari jarayonining shaffofligi, tanlovlar asosida amalga oshirilishi, xarajatlarni optimallashtirish va davlat resurslaridan oqilona foydalanishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: budjet tashkilotlari, davlat xaridlari, xaridlarni amalga oshirish, samaradorlik, shaffoflik, iqtisodiy resurslar, me'yoriy-huquqiy asoslar, xarajatlarni optimallashtirish, tizim islohoti, davlat resurslari.

Abstract: This article analyzes the need for an internal audit system in the implementation of public procurement in budgetary organizations. The study examines the economic and social importance of the effective functioning of the public procurement system, as well as effective methods and regulatory and legal frameworks for managing this system. The article emphasizes the importance of transparency of the public procurement process, its implementation on the basis of competitions, cost optimization and rational use of state resources.

Key words: budget organizations, public procurement, procurement implementation, efficiency, transparency, economic resources, regulatory and legal framework, cost optimization, system reform, public resources.

Аннотация: В данной статье анализируется необходимость системы внутреннего аудита при осуществлении государственных закупок в бюджетных организациях. Исследование рассматривает экономическую и социальную значимость эффективного функционирования системы государственных закупок, а также эффективные методы и нормативно-правовые рамки управления этой системой. В статье подчеркивается важность прозрачности процесса государственных закупок, его осуществления на основе конкурсов, оптимизации затрат и рационального использования государственных ресурсов.

Ключевые слова: Бюджетные организации, государственные закупки, реализация закупок, эффективность, прозрачность, экономические ресурсы, нормативно-правовая база, оптимизация затрат, реформа системы, государственные ресурсы.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475 sonli Qarorini qabul qilinishi bilan davlat xaridlarini

takomillashtirishning yangi davri boshlandi. Mazkur qarori jrosini ta'minlash yuzasidan mamlakatimizda bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan esa ochiqlik, shaffoflik va raqobatga asoslanga davlat xaridi tizimini joriy etish va takomillashtirish yuzasidan qariyb 3-yil davomida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Davlat xaridlarini samarali tashkil etishdan ko'zlangan maqsad davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari hisobidan budjet tashkilotlari, budjet va budjetdan tashqari jamg'armalardan mablag' oluvchilarning ehtiyojlari uchun tovar (ish,xizmat)larni muqobil variantda sotib olishga erishishdir.

Davlat xaridi davlat organlarining funksiyasini bajarishi uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta'minlash uchun ham qulay shart-sharoitlar shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari davlatning strategik maqsadlari va vazifalariga erishish, davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini va boshqa davlat dasturlarini bajarish, davlatning ijtimoiy vazifalarni hal qilish bo'yicha funksiyalarini bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat xaridlari sub'ektlariga qulay muhitni shakllantirishdan, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonunchilikning boshqacha tarzda buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot mavzusini chuqurroq o'rganish maqsadida bir necha xorij mamlakatlari va mahalliy olimlar hamda tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida nazariy tahlil, qiyoslash metodi, solishtirma tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotni amalga oshirishda ikkilamchi ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlar tahlil etildi. Davlat xaridlarini amalga oshirishning nazorat tizimi o'rganilib, ularni chuqur tahlil etidi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Rossiyalik taniqli olim A.A. Shapkinning ta'kidlashicha, davlat xaridlari — bu davlat organlari tomonidan jamoat ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan shartnomaviy munosabatlar tizimidir.¹ Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotchilar ham ushbu yo'nalishda turlicha yondashuvlarni ilgari surgan. Jumladan, Nobel mukofoti sohibi K. Arrowning fikricha, davlat xaridlari umumiy talabni tartibga solish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi.² Amerikalik tadqiqotchi D. Rozenbaum esa davlat xaridlarini bozor sub'yektlari bilan davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik shakli sifatida talqin qiladi, bu esa milliy taraqqiyotning ustuvor maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.³

V.Ye.Belov davlat xaridiga iqtisodiy kategoriya sifatida qarar ekan, unga davlatning u yoki bu tovarga bo'lgan konkretlashgan (miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarni belgilagan holdagi) ehtiyoji, deb ta'rif beradi.⁴

A.A.Demin "xarid" tushunchasini o'rganishda makroiqtisodiy nazariyaga yondoshib, bu shaxsiy yoki vazirliklar huzuridagi tashkilotlarning joriy ehtiyojini qondirish yoxud investision

¹Шапкин, А.А. Государственные закупки и их правовое регулирование в России. Москва: Юрист. (2017).

²Arrow K. (1972). Economic Welfare and the Allocation of Resources for Invention. In: The Rate and Direction of Inventive Activity. Princeton University Press.

³Rozenbaum D. (2010). Strategic Collaboration and Public Procurement in Economic Development. Journal of Public Administration, 45(2), 123-138.

⁴Белов В.Е. Правовое регулирование размещения государственного заказа / Право и экономика. 2015. № 2).

maqsadlar uchun tovar, ish, xizmatlarni muntazam ravishda va yirik hajmda, yirik summada sotib olishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyat, deb tushuntiradi.⁵

V.V. Sivchenko ta'rifiga ko'ra, davlat xaridlari — bu davlat va mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlovchi, jamoat (budjet) mablag'lari hisobiga mol, ish va xizmatlarni xarid qilishga qaratilgan belgilangan tartib-taomillar majmuasidir.⁶

Amerika iqtisodchisi Stiven Kelmanning fikricha, davlat xaridlari — bu davlat boshqaruvi tizimida amalga oshiriladigan, tashqi manbalardan shartnoma asosida zarur tovarlar va xizmatlarni xarid qilish orqali davlat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan murakkab va tizimli biznes jarayonidir.⁷

O'zbek olimlaridan biri M.M. Mirzayevning ta'kidlashicha, davlat xaridlari — bu davlat ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan, mol-mulk, xizmatlar va ishlar davlat tomonidan belgilangan tartibda sotib olinadigan jarayondir.⁸ Unga ko'ra, davlat xaridlari nafaqat budjet mablag'laridan samarali foydalanish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimida keng ko'lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, sohaning raqamlashtirilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali uning samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, 2018 yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun⁹ hamda yagona elektron savdo maydonchasining faoliyatga joriy etilishi sohani modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim huquqiy va amaliy qadam sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur islohotlar natijasida davlat xaridlari jarayonlarida ochiqlik va hisobdorlik prinsiplari yanada mustahkamlandi, shaffoflik darajasi va raqobat muhiti keskin ravishda yaxshilandi. Shu bilan birga, budjet mablag'laridan foydalanishda maqsadlilik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi mexanizmlar takomillashtirildi. Umuman olganda, davlat xaridlari sohasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish ishlari mamlakatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va joriy etish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari tomonidan 2021-2025-yillarda amalga oshirilgan xaridlar umumiy hajmi¹⁰

Yillar	2021	2022	2023	2024	2025
Umumiy xaridlar hajmi (trln so'mda)	87	147,4	205	253	248.6

⁵Демин А.А. Государственный заказ как фактор развития государственного сектора трансформационной экономики: теоретико-экономические аспекты: Дисс. ... канд. экон. наук. Челябинск, 2007. С. 63).

⁶Сивченко В.В. Государственные закупки: теория и практика. — М.: Инфра-М, 201

⁷Kelman S. Procurement and Public Management. Washington: AEI Press, 1990

⁸Mirzayev M.M. Davlat xaridlari tizimi: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Moliya nashriyoti, 2019

⁹ "Davlat xaridlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, № O'RQ-684, 22.04.2021

¹⁰ Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi hukumati portal, O'zbekiston Milliy axborot agentligi raymiy saytlari hamda Xarid.uzex.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

Shartnomalar soni (mln)	~0,75	>1,0	1.3	1.5	1.8
-------------------------	-------	------	-----	-----	-----

Yuqorida keltirilgan raqamlar va tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil mobaynida O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Xususan, ushbu davr mobaynida xaridlar hajmi nafaqat miqdor jihatidan, balki sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko'tarildi.

Yillar kesimida shartnomalar sonining izchil o'sishi, xarid jarayonlarining qamrovi va samaradorligi ortishi bu sohaning iqtisodiy faoliyatdagi roli keskin oshganini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar asosida shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimi oddiy moliyaviy harajatlar boshqaruvidan keng qamrovli va strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmga aylanib bormoqda.

Ushbu tizim bugungi kunda nafaqat budjet mablag'larini maqsadli sarflash vositasi, balki davlat siyosatini amalga oshirish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynayotgan tuzilmaga aylanganini ko'rsatmoqda.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ta'riflar va aytib o'tiganlardan xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat xaridi bu - davlatning funktsiya va vazifalarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovar (ish va xizmatlar)ni davlat mablag'lari va kreditlari hisobidan sotib olinish hisoblanadi.

Davlat xaridining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, davlat sektorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida alohida roldan kelib chiqib, uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlanishini amalga oshiruvchi mexanizmdir.

Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida davlat xaridlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga asosiy sabab, budjet tizimi budjetlari mablag'larining salmoqli qismi davlat xaridlari tizimi orqali qayta taqsimlanishidir.

Shu nuqtai nazardan, davlat xaridlarini tartibga solish orqali iqtisodiyotning qaysidir sektorini taraqqiy etishiga erishish, umuman olganda, iqtisodiyotni samarali tartibga solishda foydalanib kelinmoqda.

Davlat xaridi tizimini oqilona tashkil etish, savdolar jarayonini takomillashtirish davlat xaridlarining yanada mukammal, ochiq va shaffof bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni (2015-yil 3-aprel);
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 30-iyundagi 499-sonli qarori (Davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha tartibni belgilovchi hujjat);
4. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (2017-yil 3-aprel);

5. O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni (2014-yil 1- iyul);
6. World Bank (Dunyo Banki);
7. United Nations (Birlashgan Millatlar Tashkiloti).